XALQ DEPUTATLARI BO‘STONLIQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 15 - yanvar VI-51-3-10-136-K/22 Bo‘stonliq tuman hokimligi

Bo‘stonliq tumanining 2022 yil uchun mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining таклифини инобатга олиб, O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrdagi “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) muvofiq, Bo‘stonliq tumani mahalliy byudjetining 2022-yil uchun daromadlari 132 450,6 mln. so‘m va xarajatlari 132 450,6 mln. so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Bo’stonliq tumani mahalliy byudjetining daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin;

4. 2022-yil uchun Bo’stonliq tumani mahalliy byudjetining xarajatlari 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin;

5. 2022-yil uchun viloyat byudjetidan Bo’stonliq tumani mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini Bo‘stonliq tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2022 yil uchun Bo’stonliq tumani byudjetining zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 249,5 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bo’stonliq tumani byudjetining 2022 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Bo’stonliq tumani byudjetining, tuman byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

Bo’stonliq tumani budjetining zaxira jamg‘armasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2022 yil uchun Bo’stonliq tumani byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 980,5 mln. so‘mni hamda Bo’stonliq tumani byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq belgilansin.

8. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Abdijabarov), Moliya bo’limi mudiri (E.Turobov), Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Zokirov) va tuman tashkilotlari bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

9. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Zokirov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

10. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Zokirov), tuman Kadastr agentligi bo’limi (J. Karimov) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1,0 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

11. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Zokirov) hamda tuman hokimligining mas’ul hodimlari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

12. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo’limi (L.Tadjibayev), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

13. Tuman Suv xo‘jaligi bo’limi (R.Isayev) va tuman Davlat soliq isnpeksiyasi (Z.Zokirov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

14. Tuman Ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Shermuxamedov), tuman Yo‘l harakati xavfsizligi bo’limi hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

15. Tuman Kengashning Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (E.Yuldashboyev):

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

16. Tuman hokimligi (T. Abdijabarov):

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligi rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

17. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Abdijabarov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (J.Sadirov), tuman hokimligi, tegishli tashkilot boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

18. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

19. Tuman hokimligining Axborot xizmati (Yo.Abdullauev), “Bo‘stonliq ovozi” gazetasi (M.Alioxunova) mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-sayti va “Bo’stonliq ovozi” gazetasida e’lon qilinishini ta’minlasinlar.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashning Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy

komissiyasi (E.Yuldashboyev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Ж. Ахмедов**

Халқ депутатлари Бўстонлиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 15 январдаги
VI-51-3-10-136-K/22-сон қарорига
1-илова

Bo’stonliq tumani mahalliy byudjetining 2022 yil uchun daromadlar prognozi

ming so‘m

T/r	**Hudud nomi**	**Daromad**
1	Bo‘stonliq tumani	132 450 595,0
	Jami:	**132 450 595,0**

Халқ депутатлари Бўстонлиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 15 январдаги
VI-51-3-10-136-K/22-сон қарорига
2-илова

Bo’stonliq tumani mahalliy byudjetining 2022 yil uchun xarajatlari prognozi

ming so‘m

T/r	**Hudud nomi**	**Daromad**
1	Bo‘stonliq tumani	132 450 595,0
	Jami:	**132 450 595,0**

Халқ депутатлари Бўстонлиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 15 январдаги
VI-51-3-10-136-K/22-сон қарорига
3-илова

Bo’stonliq tumani byudjetiga 2022 yilda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘m

T/r	**Shahar va tumanlar**	**Summa**
1	Bo‘stonliq tumani	36 618 118,0
	Jami:	**36 618 118,0**

Халқ депутатлари Бўстонлиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 15 январдаги
VI-51-3-10-136-K/22-сон қарорига
4-илова

Bo’stonliq tumani byudjetining zaxira jamg‘armasi

ming so‘m

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Bo‘stonliq tumani	1 249 534,0
	Jami:	**1 249 534,0**

Халқ депутатлари Бўстонлиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 15 январдаги
VI-51-3-10-136-K/22-сон қарорига
5-илова

Bo’stonliq tumani byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘m

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Bo‘stonliq tumani	980 522,0
	Jami:	**980 522,0**

Халқ депутатлари Бўстонлиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 15 январдаги
VI-51-3-10-136-K/22-сон қарорига
6-илова

Коррупциявий омилларни аниқлаш бўйича

ЧЕКЛИСТ

Йўналишлар	Коррупциявий омиллар	Жавоблар				Коррупциявий омил мавжуд норма ва унинг асоси
Нормаларнинг барқарорлиги ва ҳуқуқий мувофиқлиги билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Сўзларнинг нотўғри қўлланилиши			йўқ		
	Ноаниқ ва асоссиз ҳаволалар келтирилганлиги			йўқ		
	Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўртасида зиддиятларнинг мавжудлиги			йўқ		
Ваколатлар, ҳуқуқ ва мажбуриятлар билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Дискрецион ваколатларнинг кенглиги			йўқ		
	Аниқ белгиланмаган ваколатлар			йўқ		
	Давлат органларининг такрорловчи ваколатлари ва вазифаларнинг мавжудлиги			йўқ		
	Давлат органи томонидан ўзининг ваколатига кирмайдиган масалалар бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиниши			йўқ		
	Вазифа ёки топшириқни бажариш учун ижрочида етарли ваколатлар ва ресурсларнинг мавжуд эмаслиги			йўқ		
	Кечиктириб тартибга солиш			йўқ		
	Манфаатлар тўқнашуви			йўқ		
	Афзалликларнинг асоссиз белгиланиши			йўқ		
	Норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг кучга киришини асоссиз равишда кечиктириш			йўқ		
	Ҳуқуқ ва мажбуриятлар ўртасидаги номутаносибликлар			йўқ		

Маъмурий тартиб-таомиллар билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Маъмурий тартиб-таомилларнинг мавжуд эмаслиги ёки тўлиқ эмаслиги			йўқ		
	Белгиланган қоидалардан чиқувчи истисноларни асоссиз ўрнатилиши			йўқ		
	Ортиқча ва асоссиз талабларнинг ўрнатилганлиги			йўқ		
	Вақт чегараларининг аниқ белгиланмаганлиги			йўқ		
	Тўлов миқдорлари аниқ белгиланмаганлиги			йўқ		
	Санкцияларнинг номутаносиблиги			йўқ		
	Чора-тадбирларни амалга оширишнинг молиялаштириш манбалари ноаниқлиги			йўқ		
Назорат билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Шикоят қилиш тартибининг мавжуд эмаслиги			йўқ		
	Шаффофлик ва жамоатчилик назоратини таъминлашдаги бўшлиқлар			йўқ		
	Давлат органларининг фаолияти устидан назорат қилишнинг шакллари ва турлари белгиланмаганлиги			йўқ		